ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

UDK: 78:37.015.31:159.922.7
ORCID: 0009-0002-4572-3328

TO'RAYEVA MOHIGUL ZAHRIDDIN QIZI
TerDPI 70110601-Musiqa ta'limi va san'at yo'nalishi 2-kurs magistranti
E-mail: mohigulturaeva@icloud.com
ZAKIROVA ZILOLA AZAMOVNA
v.b.dotsent, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). TerDPI
E-mail: zakirovazilola@gmail.com

MUSIQIY TA'LIMNING BOLALAR TIL KO'NIKMALARI VA PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI

ANNOTATSIYA. 1.Tadqiqot maqsadi: Bolalarning til ko'nikmalari, nutq va kognitiv rivojlanishida musiqa ta'limining o'rni va ta'sir mexanizmlarini aniqlash, mavjud ilmiy tadqiqotlar va empirik natijalar asosida musiqiy faoliyatning til rivoji, verbal intellekt va makoniy idrokga bo'lgan ijobiy ta'sirini tahlil qilish.

2.Tadqiqot metodlari: Ilmiy adabiyotlarni o'rganish, eksperimental tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish, neyrofiziologik va kognitiv tadqiqotlar bilan solishtirish, shuningdek, musiqiy mashg'ulotlarning bolalar til ko'nikmalari, xotira va diqqatini rivojlantirishga ta'sirini kuzatuv usuli orqali baholash metodlaridan foydalanildi.

3.Tadqiqot natijalari: Turli mamlakatlarda o'tkazilgan izlanishlar tizimli musiqiy ta'lim bolalarning verbal xotira, so'z boyligi, fonologik sezgirlik, nutq, o'qish va makoniy-zamonaviy qobiliyatlarini sezilarli darajada rivojlantirishini ko'rsatadi. Musiqiy faoliyat diqqatni jamlash, mantiqiy fikrlash, ijodiy tafakkur va auditoriya bilan muloqot qobiliyatini ham mustahkamlaydi.

4.Xulosalar: Bolalikda berilgan tizimli musiqa ta'limi estetik, madaniy va kognitiv rivojlanish bilan birga til salohiyatini, o'quv samaradorligini va ijodiy qobiliyatlarni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichlarida musiqiy mashg'ulotlarni tizimli tashkil etish pedagogik nuqtai nazardan maqsadga muvofiqdir.

KALIT SO'ZLAR: *musiqiy ta'lim, til ko'nikmalari, nutq rivoji, verbal intellekt, fonologik sezgirlik, kognitiv rivojlanish, auditiv qobiliyat, makoniy idrok.*

ВЛИЯНИЕ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ЯЗЫКОВЫЕ НАВЫКИ И ПСИХОЛОГИЮ ДЕТЕЙ

АННОТАЦИЯ. 1.Цель исследования: Определить роль и механизмы влияния музыкального образования на языковые навыки, речь и когнитивное развитие детей, проанализировать положительное воздействие музыкальной деятельности на развитие языка, вербальный интеллект и пространственное восприятие на основе существующих научных исследований и эмпирических данных.

2.Методы исследования: Использовалось изучение научной литературы, анализ результатов экспериментальных исследований, сопоставление с нейрофизиологическими и когнитивными исследованиями, а также оценка влияния музыкальных занятий на развитие языковых навыков, памяти и внимания детей методом наблюдения.

3.Результаты исследования: Исследования в различных странах показывают, что систематическое музыкальное образование значительно развивает вербальную память, словарный запас, фонологическую чувствительность, речь, навыки чтения и пространственно-временные способности детей. Музыкальная деятельность также укрепляет внимание, логическое мышление, творческое мышление и способность к взаимодействию с аудиторией.

4.Выводы: Систематическое музыкальное образование в детстве играет важную роль в эстетическом, культурном и когнитивном развитии, а также способствует развитию языкового потенциала, учебной эффективности и творческих способностей. Поэтому, с педагогической точки зрения, целесообразно систематически организовывать музыкальные занятия на дошкольном и начальном этапах образования.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *музыкальное образование, языковые навыки, развитие речи, вербальный интеллект, фонологическая осведомленность, когнитивное развитие, слуховые навыки, пространственное восприятие.*

THE EFFECT OF MUSIC EDUCATION ON CHILDREN'S LANGUAGE SKILLS AND PSYCHOLOGY

ABSTRACT: 1.Research aim: To determine the role and mechanisms of music education in children's language skills, speech, and cognitive development, and to analyze the positive impact of musical activities on language development, verbal intelligence, and spatial cognition based on existing scientific studies and empirical data.

2.Research methods: The study employed literature review, analysis of experimental research results, comparison with neurophysiological and cognitive studies, and observational methods to assess the effect of musical activities on children's language skills, memory, and attention.

3.Research results: Studies conducted in various countries show that systematic music education significantly enhances children's verbal memory, vocabulary, phonological awareness, speech, reading skills, and spatial-temporal abilities. Musical activity also strengthens attention, logical thinking, creative thinking, and audience interaction skills.

4.Conclusions: Systematic music education in childhood plays a crucial role in aesthetic, cultural, and cognitive development, while enhancing language potential, learning effectiveness, and creative abilities. Therefore, organizing systematic music lessons in preschool and primary education is pedagogically advisable.

KEYWORDS: *music education, language skills, speech development, verbal intelligence, phonological awareness, cognitive development, auditory skills, spatial perception.*

KIRISH. XXI asrda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, raqamli texnologiyalar taraqqiyoti va bilimga asoslangan iqtisodiyotning shakllanishi ta'lim tizimiga nisbatan mutlaqo yangi talablarni yuzaga keltirmoqda. Zamonaviy jamiyatda raqobatbardoshlikni ta'minlovchi asosiy omil — bu inson kapitalining sifati, ya'ni mustaqil fikrlay oladigan, kreativ yondasha oladigan hamda bilimni qayta ishlab, yangi mazmun bilan boyita oladigan shaxslarni shakllantirishdir. Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayonida faqat reproduktiv (yodlashga asoslangan) o'qitish emas, balki analitik, sintezlovchi va talqin etuvchi tafakkurni rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Bunday kompetensiyalarni shakllantirishda shaxsni ko'p qirrali rivojlantiruvchi fanlar, xususan, musiqiy ta'lim alohida o'rin tutadi. Musiqa nafaqat estetik did va badiiy tafakkurni rivojlantiradi, balki kognitiv jarayonlar, til ko'nikmalari, xotira, diqqat va ijtimoiy-emotsional rivojlanishga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, bolalik davrida beriladigan tizimli va ilmiy asoslangan musiqiy ta'lim shaxsning intellektual salohiyatini kengaytirish hamda o'quv faoliyati samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Til esa inson tafakkurining asosiy vositasi va bilish jarayonining markaziy komponentidir. Til orqali inson o'z fikrini ifodalaydi, bilimlarni o'zlashtiradi, ijtimoiy munosabatlarga kirishadi hamda madaniy merosni avloddan-avlodga uzatadi. Shu bois til rivoji bilan bog'liq har qanday pedagogik ta'sir mexanizmlarini ilmiy jihatdan o'rganish dolzarb masalalardan biridir.

Bundan tashqari, maqsadli mashg'ulotlar va mazmunli faoliyatlar asosida tashkil etilgan musiqiy amaliyotlar bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga ham samarali ta'sir ko'rsatadi. Shaxsning jamiyatdagi muloqot madaniyati, ijtimoiy moslashuvi, xulq-atvori va madaniy munosabatlari musiqiy ta'lim vositasida yanada mustahkamlanishi ta'kidlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. So'nggi tadqiqotlar musiqa ta'limi va bolalarning til ko'nikmalari o'rtasidagi psixologik bog'liqlikni tasdiqlaydi. Musiqiy mashg'ulotlar bolalarning kognitiv jarayonlari, xususan ishchi xotira, verbal intellekt, so'z boyligi va makoniy-temporal qobiliyatlarini rivojlantiradi[7;1-b.].Bu psixologik jihatdan bolalarning bilish faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi, tafakkur, diqqat va problemalarni hal qilish qobiliyatini oshiradi.

Ho, Cheung va Chan (2011) tadqiqotida musiqa ta'limi olgan bolalarda verbal xotira sezilarli darajada yaxshilangan, bu esa til va kognitiv rivojlanishdagi psixologik ta'sirni ko'rsatadi. Bilhartz va boshq. (2000) 4–5 yoshli bolalarda musiqiy mashg'ulotlar ishchi xotira va konsentratsiyani oshirgan, shuningdek, ijtimoiy-emotsional qobiliyatlarni ham mustahkamlashga yordam bergan.

Rauscher va boshq. (1994, 1997) tadqiqotlari musiqaning makoniy-temporal qobiliyatlarni rivojlantirish orqali psixologik idrok jarayonlarini kuchaytirishini ko'rsatadi. Neyrofiziologik tadqiqotlar[5;27-b.].musiqiy faoliyatning miyadagi tilni qayta ishlash bilan bog'liq hududlarni faollashtirishini ko'rsatib, psixologik asoslarni mustahkamlaydi. Moreno va hamkasblari (2009, 2011) musiqiy ta'lim olgan bolalarda o'qish ko'nikmalari va verbal intellektning rivojlanishini qayd etdi, bu bolalarning psixologik rivojlanishi va o'z-o'zini ifodalash qobiliyati bilan chambarchas bog'liq.

Shu bilan birga, tizimli va ilmiy asoslangan musiqa mashg'ulotlari nafaqat til va kognitiv qobiliyatlarni, balki bolalarning emotsional barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi va o'zaro muloqot madaniyatini ham rivojlantiradi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musiqa ta'limi bolalikda psixologik rivojlanishni integrativ ravishda qo'llab-quvvatlaydigan samarali vosita hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari. Ushbu tadqiqotda musiqa ta'limining bolalar til ko'nikmalari va psixologiyasiga ta'sirini aniqlash maqsadida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Ilmiy adabiyotlarni o'rganish metodi – musiqiy ta'lim, til rivoji va bolalar kognitiv rivoji bo'yicha so'nggi ilmiy maqolalar, monografiyalar va xalqaro tadqiqotlar tahlil qilindi[7;10-b.].

Eksperimental tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish – turli mamlakatlarda o'tkazilgan musiqa ta'limi bo'yicha empirik tadqiqotlar[3;112-b.].o'rganilib, natijalar solishtirildi.

Kuzatuv usuli – bolalar musiqiy mashg'ulotlar jarayonida nutq, so'z boyligi, xotira va diqqatini rivojlantirishga qanchalik ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlash maqsadida pedagogik kuzatuv o'tkazildi.

Neyrofiziologik va kognitiv tadqiqotlar bilan solishtirish – miyadagi tilni qayta ishlash va musiqiy faoliyat o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun ERP testlari va neyroimaging tadqiqotlarining natijalari tahlil qilindi[1;56-b.].

Analitik-sintez metodlari – tadqiqot natijalari integrativ tarzda tahlil qilinib, musiqa ta'limi va til rivoji o'rtasidagi uzviy bog'liqlik, shuningdek pedagogik tavsiyalar ishlab chiqildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Til – o'rganishning markazi, inson miyasining cheksiz imkoniyatlarini namoyon etuvchi betakror qobiliyatdir. Insonlar til ko'nikmalaridan foydalanish orqali bilim egallaydilar hamda fikrlash, anglash, tahlil qilish, savol berish va muammolarni hal etish kabi intellektual qobiliyatlarini aynan til vositasida rivojlantiradilar[6;27-b.]. Insonning dunyodagi ijtimoiy va madaniy mavqeini belgilovchi hamda uni boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turuvchi eng muhim omil ham tildir [8;10-b.].

Inson tug'ma ravishda til va nutq qobiliyati bilan dunyoga keladi. Uning eng muhim qobiliyatlaridan biri — nutq so'zlash imkoniyatidir. Aynan shu qobiliyat orqali insonlar o'zaro muloqot qiladi, fikr va tajribalarini bir-biriga yetkazadi. Tafakkurning rivojlanishi ham bevosita til bilan bog'liqdir.

Barcha sog'lom bolalar tug'ma ravishda til o'rganish qobiliyatiga ega bo'lib, til rivoji uchun zarur biologik va psixologik asoslar bilan dunyoga keladi. Bolaning til rivoji uning umumiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil sifatida baholanadi. Chunki bola til ko'nikmalari rivojlangan sari ko'proq savol beradi, savol bergan sari ko'proq bilim oladi va bilim orttirgan sari tafakkuri yanada chuqurlashadi[7;5-b.].

ISSN: 3060-4761

Bola besh yoshga to'lguniga qadar til rivojining qariyb uchdan ikki qismi shakllanadi. Besh yoshli bola o'rtacha 2000 ga yaqin so'z boyligiga ega bo'ladi va shu yoshda ona tilini kattalar darajasiga yaqin ravishda qo'llay olish bosqichiga yetadi[6;1-b.].

So'zlarni kuy va ritmga mos holda talaffuz qilishga harakat qilish til, lab va og'iz mushaklari faoliyatini mustahkamlaydi hamda nutq apparatini kompleks ravishda mashq qildiradi. Bu esa talaffuzning ravon va aniq bo'lishiga xizmat qiladi. Shuningdek, milliy musiqa vositasida o'zlashtirilgan so'z boyligi bolalarning madaniy xotirasi va ma'naviy olamini boyitib, madaniy davomiylikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi [7;6-7-b.].

Musiqa va til insonning eng murakkab hamda noyob qobiliyatlaridan ikkitasi hisoblanadi. So'nggi yillarda ushbu ikki fenomen o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash maqsadida turli mamlakatlarda qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Gonkong Xitoy universiteti (Hong Kong Chinese University) Psixologiya bo'limi tadqiqotchilari Ho, Cheung va Chan tomonidan Gonkongda o'tkazilgan eksperimental tadqiqotda 6-15 yosh oralig'idagi, o'ng qo'l dominantligi mavjud bo'lgan 90 nafar o'quvchi ishtirok etgan. Tadqiqotning birinchi bosqichida ishtirokchilar ikki guruhga ajratilgan: 45 nafar o'quvchi musiqa ta'limi olgan eksperimental guruhni, qolgan 45 nafar o'quvchi esa nazorat guruhini tashkil etgan. Musiqa ta'limi olgan guruh maktab orkestri a'zolari bo'lib, Gonkong Sahna san'atlari akademiyasi (Hong Kong Academy for Performing Arts) mutaxassislari tomonidan haftasiga kamida bir soat davomida G'arb cholg'ulari asosida klassik musiqa bo'yicha ta'lim olgan. Ishtirokchilar 1 yildan 5 yilgacha mazkur dasturda qatnashgan. Test natijalari musiqa ta'limi olgan o'quvchilarning verbal xotira ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligini ko'rsatgan.

Tadqiqotning ikkinchi bosqichi bir yil o'tib amalga oshirilgan. Ishtirokchilar uch guruhga ajratilgan:

1.Musiqa ta'limini davom ettirayotganlar;

2.Kamida 9 oy avval musiqa ta'limini to'xtatganlar;

3.Birinchi bosqichdan so'ng musiqa ta'limini boshlaganlar.

Bir yil davom etgan kuzatuv natijalariga ko'ra, musiqa ta'limini davom ettirgan va yangi boshlagan guruhlarda verbal o'rganish hamda eslab qolish ko'rsatkichlarida ijobiy o'sish kuzatilgan, musiqa ta'limini to'xtatgan guruhda esa sezilarli o'zgarish aniqlanmagan. Ushbu natijalar musiqa ta'limining verbal xotirani rivojlantirishga xizmat qilishi haqidagi ilmiy gipotezani tasdiqlaydi.

Gardiner, Fox, Knowles va Jeffrey (1996) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilarining bir guruhiga yetti oy davomida maktabdagi asosiy darslarga qo'shimcha ravishda musiqa va tasviriy san'at ta'limi berilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, mazkur qo'shimcha ta'limni olgan o'quvchilarning matematika fanidan ko'rsatkichlari faqat maktab dasturi doirasida ta'lim olgan tengdoshlariga nisbatan yuqori bo'lgan[5;18-b.].

Mazkur yo'nalishdagi yana bir muhim tadqiqot Amerika Qo'shma Shtatlaridagi Sam Houston Davlat universiteti tadqiqotchilari Bilhartz, Bruhn va Olson (2000) tomonidan amalga oshirilgan. Tadqiqotda 4-5 yoshli 66 nafar bola ishtirok etgan bo'lib, ular tajriba va nazorat guruhlariga ajratilgan. Nazorat guruhiga maxsus ta'lim berilmagan, tajriba guruhiga esa musiqa ta'limi tashkil etilgan. Tajriba guruhi o'z navbatida uch kichik guruhga bo'linib, har bir guruh 30 hafta davomida haftasiga bir kun 75 daqiqalik musiqa mashg'ulotlarida qatnashgan.

Ta'lim dasturi vokal mashqlar va interval moslashtirish, qo'shiq kuylash, zarbli cholg'ular hamda glokenshpil chalish, asosiy ritmlarni o'rganish va ularning notalarini yozish, kompozitsiya yaratish, harakat orqali muvozanat va koordinatsiyani rivojlantirish kabi turli musiqiy faoliyatlarni o'z ichiga olgan. Bundan tashqari, bolalarga uy sharoitida bajarish uchun musiqa mashqlari bo'yicha topshiriqlar ham berilgan.

Tajriba va nazorat guruhlariga ta'limdan oldin va keyin kognitiv hamda musiqiy qobiliyatlarni o'lchovchi testlar qo'llanilgan. Dastlabki test natijalarida guruhlar o'rtasida sezilarli farq aniqlanmagan bo'lsa-da, yakuniy test natijalarida tajriba guruhi nafaqat musiqiy rivojlanish, balki "Munchoq xotira" (Bead Memory) testi bo'yicha ham nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori natijalar qayd etgan. Ushbu natijalar erta yoshdagi musiqa ta'limi bilan kognitiv rivojlanish o'rtasida muhim bog'liqlik mavjudligi haqidagi gipotezani tasdiqlaydi.

Yaxshi rivojlangan makoniy qobiliyat bir qator ustunliklarga ega. Arnheim[5;10-b.].idrok jarayonlari dunyoni anglashning asosini tashkil etishini, ayniqsa kognitiv jarayonlar muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Makoniy bilish (spatial cognition) fazoda mavjud obyektlar bilan bog'liq maxsus aqliy jarayon turi sifatida ta'riflanadi (Rauscher va Zupan, 2000). Makoniy intellekt yordamida inson vizual olamni idrok etadi hamda obyektlarning tasvirini ongida gavdalantira oladi. Shu bois mazkur qobiliyatni erta yoshdan rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Musiqa ta'limi va makoniy qobiliyat o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganuvchi tadqiqotlar, ayniqsa 1990-yillardan boshlab, musiqaning makoniy-zamonaviy (spatial-temporal) qobiliyatlarni rivojlantirishdagi rolini ko'rsatmoqda. Xususan, maktabgacha yoshdagi bolalar orasida individual musiqa darslarini olganlar kompyuter darslarida qatnashgan bolalarga (Rauscher va boshq., 1997) yoki umuman maxsus dars olmagan bolalarga (Costa-Giomi, 1999; Gromko va Poorman, 1998; Rauscher va boshq., 1994) nisbatan makoniy-zamonaviy testlarda yuqoriroq natijalar ko'rsatganlar.

1993-yilda Kaliforniya universitetida Rauscher, Shaw va Ky tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda 10 daqiqa davomida Mozart asarlarini tinglagan universitet talabalari makoniy vazifa testida sezilarli darajada yuqori natija ko'rsatganligi qayd etilgan. Biroq passiv musiqa tinglashning makoniy vazifalar bajarilishiga ta'siri qisqa muddatli bo'lib, 10–15 daqiqadan ortiq davom etmagan[6;15-b.].

Fransiyadagi O'rta Yer dengizi universiteti (Université de la Méditerranée) kognitiv neyrobiologlari Magne, Schön va Besson (2006) tomonidan 7–9 yoshli 26 nafar

bola (13 nafari musiqiy tayyorgarlikka ega, 13 nafari esa bunday tayyorgarlikka ega bo'lmagan) ishtirokida tadqiqot o'tkazilgan. Ishtirokchilar o'ng qo'l dominantligi mavjud, normal eshitish qobiliyatiga ega hamda ona tili fransuz bo'lgan bolalardan iborat bo'lgan. Musiqa ta'limi olgan guruh 3-5 yil davomida turli cholg'u asboblarida (skripka, gitara, nay, klarnet, arfa, fortepiano) muntazam shug'ullangan. Tadqiqot natijalari musiqa ta'limining bolalarning kognitiv jarayonlariga, xususan til ko'nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatgan.

2006 yilda Germaniya va Amerika Qo'shma Shtatlari universitetlari nevrologlari tomonidan amalga oshirilgan qo'shma tadqiqotda 8 nafar professional pianinochi va 8 nafar musiqa ta'limi olmagan shaxsning miya tasvirlarini neyroimaging usuli orqali tahlil qilingan. Natijalar musiqachilarda tilni qayta ishlash bilan bog'liq miya hududlarida yuqori funksional faollik mavjudligini ko'rsatgan. Bu esa musiqa va til o'rtasida neyrofiziologik kesishuv mavjudligini tasdiqlaydi[9;11-b.].

Fransiya va Portugaliya universitetlari tadqiqotchilari Moreno, Marques, A. Santos, M. Santos, Castro va Besson (2009) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda 8 yoshli 32 nafar o'quvchi ishtirok etgan. Ishtirokchilar tasodifiy ravishda musiqa va tasviriy san'at guruhlariga ajratilgan. 24 hafta davomida haftasiga ikki marta 75 daqiqalik mashg'ulotlar olib borilgan. Musiqa ta'limi Kodaly, Orff va Wuytack metodologiyalari asosida tashkil etilgan. Tadqiqot natijalari musiqa ta'limi olgan bolalarda o'qish ko'nikmalarining sezilarli darajada rivojlanganini ko'rsatgan.

Kanadadagi York universiteti (York University) va Toronto universiteti (University of Toronto) Psixologiya bo'limlari tadqiqotchilari Moreno, Bialystok, Barac, Schellenberg, Cepeda va Chau (2011) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda 4-6 yoshli bolalar ishtirok etgan. Bir guruh tinglashga asoslangan musiqa ta'limi, ikkinchi guruh esa vizual san'at ta'limi olgan. To'rt hafta davom etgan eksperiment natijalari qisqa muddatli musiqa ta'limi ham bolalarning so'z boyligi va verbal intellekt ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatgan. Musiqa guruhi ishtirokchilarining 90 foizdan ortig'ida verbal rivojlanish qayd etilgan.

XULOSA. Umuman olganda, Osiyodan Yevropagacha va Shimoliy Amerikagacha bo'lgan turli madaniy muhitlarda o'tkazilgan tadqiqotlar musiqa ta'limining verbal xotira hamda til rivojiga ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi. Mazkur ilmiy izlanishlarning umumiy xulosasi shundan iboratki, musiqa va til integrativ ravishda rivojlanadi. Ayniqsa bolalik davrida berilgan tizimli va ilmiy asoslangan musiqa ta'limi bolaning til qobiliyati, o'qish kompetensiyasi hamda verbal intellektining shakllanishi va rivojlanishini samarali qo'llab-quvvatlaydi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar va empirik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, musiqiy ta'lim va til rivoji o'rtasida uzviy, ko'p qirrali hamda ilmiy asoslangan bog'liqlik mavjud. Musiqa inson miyasining tilni qayta ishlash bilan bog'liq hududlarini faollashtiradi, verbal xotirani mustahkamlaydi, fonologik sezgirlikni oshiradi hamda o'qish va nutq ko'nikmalarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, musiqa va til integrativ ravishda rivojlanadigan jarayonlar bo'lib, ularning o'zaro ta'siri neyropsixologik va pedagogik jihatdan asoslangan. Shu bois ta'lim tizimida musiqiy tarbiyaga alohida e'tibor qaratish, uni maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichlarida tizimli ravishda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Musiqiy ta'limni rivojlantirish orqali nafaqat estetik madaniyatni, balki bolalarning til salohiyati va kognitiv imkoniyatlarini ham samarali ravishda qo'llab-quvvatlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqning falsafiy tafakkuri (O'rta asrlar). – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 189. (The Philosophical Thought of Central Asia, Near and Middle East (Middle Ages)) Sharipova G. Musiqa o'qitish metodikasi. – Toshkent: NIF MSH, 2020. – bet 56. (Music Teaching Methodology)

2.Sharipova G. Musiqa o'qitish metodikasi praktikumi. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2020. – bet 78. (Practicum on Music Teaching Methodology)

3.Karimov A. O'zbek xalq cholg'ulari tarixi. – Samarqand: O'zbekiston, 2018. – bet 112. (History of Uzbek Folk Instruments)

4.М.Жабборова.А.Р.Солиев, "Мактабгача таълим ташкилотлари тарбияланув-чилар онгида миллий мусиқа оҳангларига мойилликни шаклантиришда миллий ғояларнинг ўрни. SCIENCE AND INNOVATION/ INTERNFTIONAL SCIENTIFIC JURNAL. ISSN: 2181-3337. 20220 йил. 1-сон.

5.Güneş, F. (2010). Ninnilerin çocukların dil ve zihinsel gelişimine etkisi. Zeitschrift für die Welt der Türken / Journal of World of Turks, 2(3), 27–38.

6.Kol, S. (2011). Erken çocuklukta bilişsel gelişim ve dil gelişimi. Sakarya Üniversitesi Eğitim Fakültesi Dergisi, 21 (21). 1-21.

7.Başer, F.A. (2014). Müziğin okul öncesi dönemde çocuk gelişimine katkısı. Sakarya Üniversitesi Eğitim Fakültesi Dergisi, (8), 1-10.

8.Bilhartz, T.D., Bruhn, R.A., Olson, J.E. (2000). The effect of early music training on child cognitive development. Journal of Applied Developmental Psychology, 20 (4), 615-636.

9.Rauscher, F.H., and Zupan, M.A. (2000). Classroom keyboard instruction improves kindergarten children's spatial-temporal performance: A field experiment. Early Childhood Research Quarterly, 15 (2), 215-228